

**BANK KARTALARIDAN ISH HAQI LOYIHASI DOIRASIDA FOYDALANISH TO'G'RIDIDA  
SHARTNOMA \_\_\_\_\_ SONLI**

**Toshkent sh.**

\_\_\_\_\_yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_

**ATB «Tenge Bank»**, bundan buyon matnlarda «Bank» deb nomlanadi, **Boshqaruv Raisi O'rinbosari**, \_\_\_\_\_yildagi \_\_\_\_\_ sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi, bir tarafdin va \_\_\_\_\_ bundan buyon matnlarda "Tashkilot" deb yuritiladi, nomidan Ustavi asosida faoliyat yurituvchi rahbari \_\_\_\_\_, ikkinchi tarafdin, ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

**1. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. Ushbu shartnoma bank va tashkilot o'rtasida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni (bundan buyon matnda "ish haqi loyihasi" deb yuritiladi) tashkilot xodimlari uchun bank tomonidan chiqarilgan so'm plastik kartochkalarga o'tkazish tizimini joriy etish bo'yicha munosabatlarni tartibga soladi.

**2. UMUMIY QOIDALAR**

2.1. Tashkilot ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi xodimlarning Bank tomonidan o'rnatilgan shaklda ro'yxatini taqdim etadi. Tashkilot ushbu ro'yxatdagi barcha o'zgarishlarni, shu jumladan ishdan bo'shatilgan yoki yangi xodimni ishga qabul qilingan taqdirda Bankga xabar beradi.

2.2. Ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi tashkilotning har bir xodimi ish haqini to'lash uchun Bank qonun hujjatlariga muvofiq taqdim etilgan hujjatlar asosida karta hisobini ochadi (bundan keyin "karta hisobi" deb yuritiladi) va so'm plastik kartalarini beradi. Ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi Tashkilot xodimiga so'm plastik karta ish haqi loyihasi doirasida jismoniy shaxsning UZCARD EMV so'm plastik kartasiga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi alohida tuzilgan shartnoma asosida beriladi.

2.3. Har bir ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar o'tkazilganda tashkilotning muhri bilan tasdiqlangan, tashkilot rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolangan bank bayonnomasini, shuningdek elektron shakldagi bayonnomani taqdim etadi. Tashkilot bayonnomani Bank tomonidan o'rnatilgan tartibda tuzadi.

**3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI**

**3.1. Bank majburiyatlariga:**

3.1.1. Ushbu shartnomaning 2.1. – bandida qayd etilganidek Tashkilot tomonidan taqdim etilgan ro'yxatga ko'ra, ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi tashkilotning har bir xodimiga karta hisobini ochish va ushbu hisob raqamni ochish uchun ariza, shaxsni tasdiqlovchi hujjat va alohida tuzilgan shartnoma asosida milliy valyutada plastik karta berish;

3.1.2. Tashkilotning arizasi asosida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni tashkil etish uchun maxsus tranzit hisob raqam ochish;

3.1.3. Tashkilotning maxsus tranzit hisobiga pul kelib tushgandan so'ng va tashkilot tomonidan ushbu shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan to'g'ri to'ldirilgan bayonnomani 1 bank ish kuni mobaynida taqdim etgandan so'ng, ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi tashkilot xodimlarining ish haqi summasi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek, kompensatsiya pensiyalari va ushbu bayonnomada ko'rsatilgan boshqa ijtimoiy to'lovlar karta hisob raqamiga o'tkazish.

**3.2. Tashkilot majburiyatlari:**

3.2.1. Ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab 3 bank ish kuni mobaynida ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi tashkilot xodimlari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar ro'yhati qog'oz va elektron shaklda taqdim etish:

F.I.Sh.;

Tug'ilgan yili;

Pasport ma'lumotlari;

Propiska bo'yicha yashash manzili;

Bog'lanish uchun telefon raqami.

3.2.2. Ushbu shartnomaning 2.1. bandida ko'rsatilgan ro'yxat o'zgartirilgan kundan boshlab 3 bank ish kuni mobaynida bankga xabar berish;

3.2.3. Maxsus tranzit hisobiga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, shuningdek pensiya, kompensatsiya va boshqa ijtimoiy to'lovlarni o'tkazish. Bankning komission mukofotini bank ta'riflariga muvofiq to'lash, bunda komission haqni o'tkazish alohida to'lov topshirig'i bilan birga amalga oshiriladi;

3.2.4. Maxsus tranzit hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish kunida ushbu shartnomaning 2.3-bandida ko'rsatilgan qog'oz va elektron shaklda bayonnomani taqdim etish.

## **4. TOMONLARNING HUQUQLARI**

### **4.1. Bank quyidagi huquqlarga ega**

4.1.1. Bankning amaldagi ta'riflariga muvofiq tashkilotdan komission haq olish;

4.1.2. Agar tashkilot ish haqi loyihasida ishtirok etadigan tashkilot xodimlarining karta hisob raqamlariga ish haqi tashlash amaliyotlarini amalga oshirish jarayonida bank o'rnatgan quyidagi talablarga rioya qilmaganda ish haqini kartalarga o'tkazmaslik:

4.1.2.1 Tashkilot ushbu shartnomaning 3.2.4. – bandida ko'rsatilgan muddatlarda bayonnomani taqdim etmaganda;

4.1.2.2. Tashkilot tomonidan taqdim etilgan bayonotda xatolar yoki noaniqliklar mavjud bo'lsa

4.1.3. Agar Tashkilot ushbu shartnomaning 4.1.2.1., 4.1.2.2. – bandlarida qayd etilgan xatoliklarni yo'lga qo'ygan bo'lsa tashkilotning depozit hisob raqamiga 3 bank ish kuni ichida qaytarish;

4.1.4. Agar Tashkilot ushbu shartnomaning 4.1.2.1., 4.1.2.2. – bandlarida qayd etilgan xatoliklarni yo'lga qo'ygan bo'lsa va agar bu kun kalendar oyining oxirgi bank kuni bo'lsa tashkilotning deposit hisob raqamiga 1 bank ish kuni ichida qaytarish;

4.1.5. Bank ta'riflarida o'zgarishlar kuzatiladigan bo'lsa, kuchga kirishidan kamida 5 bank ish kuni oldin tashkilotga bank saytida [www.tengebank.uz](http://www.tengebank.uz), ommaviy axborot vositalarida yoki bankning ixtiyori bilan tanlangan boshqa usulda oldindan xabardor qilib bir tomonlama tartibda o'zgartirish;

4.1.6. Agar ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi tashkilotning xodimi bank saytida ([www.tengebank.uz](http://www.tengebank.uz)) joylashtirilgan so'm plastik kartalaridan foydalanish bo'yicha bank yo'riqnomalariga rioya qilmasa, so'm plastik kartasiga xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish.

### **4.2. Tashkilot quyidagi huquqlarga ega:**

4.2.1. Ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi tashkilot xodimlarining plastik kartalariga tashlab berilgan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni Bankdan yozma ravishda so'rash.

## **5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

Ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan holatlarda taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi

5.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarimaslik uni bekor qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bekor qilish vaqti tomonlar o'rtasida alohida tartibda belgilanadi.

5.2. Agar taraflardan biri ushbu shartnomani bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini buzsa, ikkinchi tomon buning uchun javobgar bo'lmaydi.

## **6. MAXFIYLIK**

6.1. Tashkilot va bank ushbu shartnoma bo'yicha axborotning maxfiyligini ta'minlash uchun teng javobgardir.

6.2. Ushbu shartnoma predmeti bilan bog'liq bank va tashkilot tomonidan bir-biriga taqdim etilgan ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi. Tomonlar uchinchi shaxslarga axborotni oshkor etilishining oldini olish uchun barcha zarur va yetarli choralarni ko'radi.

## **7. FORS-MAJOR**

7.1. Agar tomonlar davlat boshqaruvi va nazorati organlari shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan cheklovchi-taqqilovchi xatti-harakatlar yoki chora-tadbirlarning natijasi xamda urush, zilzila, yong'in, qoralash yoki boshqa ofatlar (texnika, dasturiy ta'minot, ma'lumotlar uzatish tizimlarining buzilishi, elektr ta'minoti uzilishi, ularning aybi bilan emas, lekin ularning majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilganda) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgar bo'lmaydi. Tomonlar ushbu turdagi favqulodda vaziyatlarning boshlanishi va tugashini yozma ravishda darhol xabar qilishlari shart.

7.2. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlagan taqdirda favqulodda vaziyat deb hisoblanadi.

## **8. NIZOLARNI HAL QILISH**

8.1. Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Agar kelishuvga erishilmagan bo'lsa, nizo O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda sud organlariga ko'rib chiqish uchun beriladi.

## 9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

9.1. Ushbu shartnoma tomonlar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va tomonlardan biri uni bekor qilish istagini bildirmaguncha muddatsiz bo'ladi.

9.2. Ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi tashkilot xodimlarining so'm plastik kartochkalariga xizmat ko'rsatishga doir shartnoma va kelishuvlar tomonlar tomonidan avval imzolangan barcha shartnomalar ushbu shartnoma tuzilgan paytdan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

9.3. Ushbu shartnomaning barcha o'zgartirish va qo'shimchalar tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan yozma ravishda tuzilgan va imzolangan taqdirda amal qiladi, bank ta'riflarining o'zgarishi bundan mustasno.

9.4. Ushbu shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin, agar boshqa tomon ushbu shartnoma bekor qilingan sanadan 30 bank ish kuni oldin yozma ravishda xabar bergan bo'lsa, quyidagi sharti bilan:

- Ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi tashkilot xodimlariga bank tomonidan berilgan kartalar soz holatida bankka qaytarilganda;

- Tashkilot ushbu shartnoma bo'yicha bank oldida barcha majburiyatlarni bajargan va qarzdor bo'lmasa.

## 10. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Ushbu shartnoma teng huquqli yuridik kuchga ega bo'lib ikkita asl nusxadan iborat, har bir tomon uchun bittadan.

10.2. Ushbu shartnomaga muvofiq yuborilgan barcha bildirishnomalar va xabarlar yozma ravishda rasmiylashtirilgan bo'lib, hamda ular pochta orqali yuborilgan bo'lsa yoki olinganligi haqida tasdiqlansa, tegishli tarzda tomonlarning quyida ko'rsatilgan yuridik manzillari bo'yicha shaxsan yetkazib berilsa qabul qilingan deb hisoblanadi.

10.3. Ushbu shartnomada tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

## 11. TARAFLARNING YURIDIK MANZILI, REKVIZITLARI VA IMZOLARI

ATB «Tenge Bank»

Adres: Toshkent sh., Yashnobod tumani,  
Parkent ko'chasi, 66 uy

H/r: \_\_\_\_\_

MFO: 01176

STIR: 207297973

OKONX: 64190

e-mail: info@tengebank.uz

\_\_\_\_\_

Adres:

\_\_\_\_\_

H/r \_\_\_\_\_

MFO: \_\_\_\_\_

STIR \_\_\_\_\_

OKONX \_\_\_\_\_

e-mail:

Imzo: \_\_\_\_\_

M.P.

Imzo: \_\_\_\_\_

M.P